




2021- yil yanvar-iyun oyida ANDIJON VILOYATIDA xizmatlar sohasining rivojlanishi






2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.





2021- yil yanvar-iyun


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-iyun oylida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **7 021,6** mlrd. so'mga yetdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **122,5 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oyida)





2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	7 021,6	122,5
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	304,1	112,0
Moliyaviy xizmatlar	1 865,3	155,3
Transport xizmatlari	1 361,9	112,8
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 318,9	111,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	104,1	102,0
Savdo xizmatlari	2 024,5	109,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	186,8	124,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	282,8	123,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	107,3	111,3
Ijara xizmatlari	160,8	138,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	141,6	122,9
Shaxsiy xizmatlar	296,8	118,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	49,1	102,9
Boshqa xizmatlar	136,8	111,0



2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



**2021- yil yanvar-iyun****Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-iyun oyida ularning ulushi **28,8%** ni tashkil etdi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlari hajmida eng past o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **0,7 %** ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oyida savdo xizmatlari umumiy hajmda **31,6 %** ni tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida Me'morchilik sohasidagi xizmatlarining ulushi ham eng kichik bo'lgan – **0,8 %**.

2021- yil yanvar-iyun oyida yuqori o'sish moliyaviy sohasida (**55,3 %**), ijara xizmatlar (**38,1 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**24,2 %**) ta'lim sohasidagi xizmatlar (**23,6 %**), qayd etildi.


Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oyida Moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi (**147,0 %**).



2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da





2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-iyun oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **28,8 %** ni tashkil etdi, bu esa **2 024,5 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oyida ularning hajmi **1 666,0 mlrd. so'mga** yoki umumiy hajmining **31,6 %** iga to'g'ri kelgan.


Savdo xizmatlari

2020- y. yanvar- iyun

Xizmatlar hajmi
1 666,0 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
101,8%

Ulushi
31,6 %



2021 y. yanvar- iyun

Xizmatlar hajmi
2 024,5 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
109,5 %

Ulushi
28,8 %



2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-iyun oyida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i **84,8 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2021- yil yanvar –iyun oyida)

**Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosi,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari)**

6,9 %

84,8 %

8,3 %



**Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari chakana
savdo bo'yicha
xizmatlar**



**2021- yil yanvar-iyun****Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-iyun oyida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **1 865,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oyida ularning hajmi **1 168,4** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **26,6** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oyida ularning ulushi **22,2** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **696,9** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **55,3** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oyida ularning o'sish sur'ati **47,0** % ga yetgan.

**2021- yil yanvar-iyun****Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **55,6 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning iyun oyi yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **3,0 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2021- yil yanvar-iyun oyida)





2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yil yanvar-iyun oyida)

2020- y. yanvar-iyun

2021 y. yanvar-iyun

267,5
mlrd. so'm

112,7 %

5,1 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

**Jami hajmdagi
ulushi**

Hajmning o'sishi

36,6 mlrd. so'mga

304,1
mlrd. so'm

112,0 %

4,3 %





2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **97,1 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2021- y. yanvar-iyun





2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**211,1
mlrd. so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**282,8
mlrd. so'm**

**2020- y.
yanvar-
iyun**



**2021- y.
yanvar-
iyun**

2021- yil yanvar-iyun oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **282,8** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **4,0** % ni tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **123,6** % ni tashkil etdi.

114,3 %

O'sish sur'atlari, % da

123,6%

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyun oyida xizmatlar hajmi **211,1** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan o'sish **14,3** % darajasi qayd etilgan.



2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**

90,1

104,1

**2020- y.
yanvar-iyun**

**2021- y.
yanvar-iyun**



**O'sish
sur'ati, % da**

81,6

102,0

2020- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **14,0** mlrd. so'mga ortdi.

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-iyun

93,2 %

6,8 %



0,0 %

100 %

2020- y. yanvar-iyun



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar**



Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-iyun oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **93,2 %** bilan ustunlik qildi.



2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2020- y.
yanvar-iyun**

**2021- y.
yanvar-iyun**

83,6
mlrd. so'm

**Xizmatlar
hajmi**

107,3
mlrd. so'm

73,0 %

**O'sish
sur'ati**

111,3 %

1,6 %

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

1,5 %






2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da (2021- yil yanvar-iyun oyida)



2021- yil yanvar-iyun oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Andijon shahriga tegishli – **34,1 %** (2020- yilda **33,3 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Bo'ston tumanida **2,5 %** (2020- yilda **2,6 %**) qayd etildi.



2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar (2021 yil yanvar-iyun)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021 y.	2020 y.
Andijon viloyati	7021,6	122,5	5269,6
Shahar:			
Andijon sh	2397,2	125,5	1756,3
Xonaobod sh	212,8	115,6	169,3
Tumanlar:			
Oltinko'l	327,0	122,8	244,9
Andijon	389,9	121,9	294,0
Baliqchi	305,0	123,3	227,4
Bo'ston	173,2	114,1	139,5
Buloqbo'shi	259,3	119,0	200,3
Jalaquduq	272,4	116,2	215,6
Izboskan	342,8	122,2	257,9
Ulug'nor	175,4	115,0	140,3
Qo'rg'on-tepa	396,8	123,8	294,6
Asaka	434,8	124,8	320,2
Marhamat	281,1	117,4	220,1
Shahrixon	404,9	124,3	299,6
Paxtaobod	399,0	122,9	298,4
Xo'jaobod	249,9	120,1	191,3

**) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*



2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

**Hajmning
o'sishi**

**2193,1
ming so'm**

**515,1 ming
so'mga**

2021- yil yanvar-iyun oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 193,1** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan o'sish sur'ati **120,2 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyun oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 678,0** ming so'mni tashkil etgan.

120,2 %

O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

**24 711
birlik**

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

115,7 %

2020- yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o'sishi

**3 359
birlikga**

Ularning umumiy sonidagi ulushi

62,2 %




2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1-iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **62,2 %**, sanoat **22,9 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **6,6 %** ga yetdi. Qurilish sohasi **8,3 %** ga to'g'ri keladi.

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi
(*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **62,3 %**, sanoat **22,6 %**, qurilish **8,7 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **6,4 %** ni tashkil etgan.




2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



10,9 %

2021- yil yanvar-iyun oyida kichik tadbirkorlik subyektlari tomoni-dan ko'rsatilgan bozor xizmat-larining ulushi **10,9 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **79,8 %** ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.

Tel.: 74-228-30-83